



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№4(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 210 sahifa,  
13-aprel, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Alohida ehtiyojga muhtoj bolalarga matematika darslarida integratsion yondashuvni amalga oshirish .....	10
<a href="#">Mamadjanova Ma'muraxon Kadirjanovna</a>	
O'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari.....	13
<a href="#">Boltayeva Go'zal Komilovna</a>	
Inkluziv ta'lim sharoitida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini aniqlash metodologiyasi .....	21
<a href="#">D. Sh. Jo'rayeva, J. A. Jovliyev</a>	
Bolalarda leksik-grammatik nutq kamchiliklarini bartaraf etishda kontekstli texnologiyalardan foydalanish .....	25
<a href="#">Abdullayeva Yoqutjon Qalandar qizi</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi .....	30
<a href="#">Abduvaliyeva Sabina Kurbonali qizi</a>	
O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	35
<a href="#">Aripov Shokirjon Olimovich, Raxmatillayeva Sug'diyona Muhammadjon qizi</a>	
Pedagogik intuitsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodikalar .....	39
<a href="#">Axmedov Jaloliddin Oribovich</a>	
The Impact of AI-Generated English Learning Materials Based on Uzbek Rural Life on the Learning Motivation of Rural Students.....	42
<a href="#">Baxramova Malika Muzaffarovna</a>	
Raqamli kutubxonalarda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish texnologiyalari va imkoniyatlari .....	47
<a href="#">Choriyeva Zarina Anvarbek qizi</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik savodxonlikni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari ...	50
<a href="#">D. Teshaboyev, M. Sotvoldiyeva</a>	
Oliy ta'limda tblt metodik modeli asosida baholash tizimini takomillashtirish .....	53
<a href="#">Djurayeva Nargiza Kudratillayevna</a>	
Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik etikaning rivojida xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	59
<a href="#">Dushayeva Nazokat Sharofiddinovna</a>	
Uilyam Shekspir tragediyalarining o'zbek adabiyotidagi o'rni.....	62
<a href="#">Ergasheva Mehriyona</a>	
Qizlarning oilaviy kompetensiyasi uchun ijodiy pedagogika: Koreya dizayn ta'limi modelini O'zbekiston kontekstiga moslash.....	65
<a href="#">G'ayratova Mohidil Zafar qizi</a>	
Jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish metodikasi .....	69
<a href="#">Maksetova Nurjamal Kuatovna</a>	
Integrativ ta'lim muhitida bo'lajak surdopedagoglarning metodik kompetensiyalarini shakllantirish .....	72
<a href="#">Malikova Xurshida Ikramovna</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ko'p uchraydigan tovush talaffuzi kamchiliklari va ularni bartaraf etishda lopedik usullar.....	75
<a href="#">Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi</a>	
Talabalarga an'anaviy xonandalik ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari.....	78
<a href="#">Muxammadova Ozoda Muzrabovna</a>	
Hayotiy sifat tushunchasini psixologik mazmuni.....	82
<a href="#">N. G. Pulatova</a>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ehtiyojlarga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning kompleks yondashuvlari .....	85
<a href="#">Nazarova Dildora Asatovna, Abdurashidova Feruza Qaxramonovna</a>	
Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchining ko'p qirrali pedagogik faoliyati va uning nazariy asoslari .....	89
<a href="#">Nazarova Dildora Asatovna, Axmedova Aziza Temurovna</a>	



Xo'ja ahmad Yassaviy e'tiqod tarbiyasi haqida.....	93
<i>Norova Sevara Uyg'un qizi</i>	
Matritsa va uning determinanti mavzusini o'qitish orqali bo'lajak iqtisodchilarning analitik tafakkurini rivojlantirish texnologiyalari.....	97
<i>Nuriddinov Jalolxon Tursunboy o'g'li, Otaboyev Muxsinjon Muqimjonovich</i>	
Odam anatomiyasi darslarida interfaol va multimedia vositalaridan foydalanish yo'llari.....	104
<i>Nurmatov Norqobil Jo'rayevich, Qo'chqorova Moxira Dilmurod qizi, Boxodirova Nilufar Ikrom qizi</i>	
AQSh ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari va bugungi kundagi rivojlanishi.....	110
<i>Orishev Jamshid Bahodirovich</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda xorijiy ta'limi tajribalari.....	116
<i>Pardayeva Gulbahor Jalg'ashovna</i>	
Kreativ ta'lim texnologiyalarining pedagogik mohiyati.....	119
<i>Sariboyev Nurali Abdunazarovich</i>	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy pedagogik tizimdagi o'rni.....	122
<i>Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li</i>	
Konstruktiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	126
<i>Sobirova Sarvinoz Quvondiqovna</i>	
Criteria of Scientific Activity Implementation of Physical Culture Education Students.....	133
<i>Sapayev Ruzmat Radjapovich</i>	
O'smir yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	136
<i>Tilovova Qizlarxon Ishpulat qizi</i>	
PIRLS tadqiqotida so'rovnomalarning qamrov doirasida maktab muhiti.....	141
<i>To'qliyeva Matluba Boqiyevna</i>	
Onlayn til o'rganish platformalarining esl o'quvchilarining og'zaki nutq ishonchi (speaking confidence) ga ta'siri.....	146
<i>Tojiboyeva Shohistaxon, Omonova Nargiza</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ o'yinlarning ahamiyati.....	151
<i>Toshpo'latova Sevinch O'ral qizi</i>	
Maktab o'quvchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalashning samarali uslublari.....	155
<i>Turdiyev Azam Xasanovich</i>	
O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda xalqaro baholash tizimini tatbiq etish imkoniyatlari.....	158
<i>Turobov Mamarajab Sodiq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	163
<i>Umirzoqova Surayyo Xudoyberdiyevna</i>	
Talabalarda perspektiv tasvir bajarishga oid ko'nikmani shakllantirishda CAD dasturlaridan amaliy foydalanish imkoniyatlari.....	165
<i>Valiyev A'zamjon Nematovich, Toxirov Sardorbek Muzaffar o'g'li</i>	
Duduqlanishni bartaraf etishda qo'llaniladigan usullar va vositalar.....	173
<i>Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usullari.....	176
<i>Xudoyberdiyeva Dildora Nazarjon qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Duduqlanishga ega bolalar nutqini rivojlantirishda kompleks korreksion ishlar tizimi.....	179
<i>Xusanova Nozimaxon Zuxriddin qizi</i>	
Sirdaryo viloyatida tabiat va mehnat jarayonlarining tasviriy san'at orqali estetik va ekologik ifodasi.....	182
<i>Yorlaqova Malika Ahmad qizi</i>	
The Relevance of Artificial Intelligence in Teaching the English Language.....	186
<i>Yusupova Gulnoza Mirzoyevna</i>	
Umumta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatiladigan nutq xususiyatlari.....	189
<i>Zairova Nigora</i>	



Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari .....	193
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Педагогические технологии совершенствования физических качеств как основы здорового образа жизни .....	197
<i>Журабаев Абдукарим Маматкулович</i>	
Формирование духовно-нравственной компетентности будущих учителей как педагогическая проблема .....	200
<i>Зокиржонova Ф. Р., Рихситиллаева Д. Р., Меликузиева Ш. А.</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе .....	203
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Talaba yoshlarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar .....	205
<i>Xojametov Ajiniyaz Andriyanovich</i>	
Методика формирования познавательных интересов у младших школьников в процессе выполнения творческих заданий на уроках русского языка .....	207
<i>Юлдашева Тахмина Бону Гайратовна</i>	



# DUDUQLANISHNI BARTARAF ETISHDA QO'LLANILADIGAN USULLAR VA VOSITALAR

Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti  
 Namangan filiali maxsus pedagogika  
 defektologiya logopediya yo'nalishi 2-bosqich magistri



**Annotatsiya:** Mazkur maqolada duduqlanish (stammering) nutq buzilishining mohiyati, uning kelib chiqish sabablari hamda uni bartaraf etishda qo'llaniladigan zamonaviy logopedik usullar va vositalar tahlil qilinadi. Duduqlanishning psixologik, nevrologik va ijtimoiy omillari yoritilib, ushbu nutq nuqsonining bolalar va o'smirlar nutq faoliyatiga ta'siri ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada nafasni to'g'ri boshqarish mashqlari, ritm va tempni tartibga solish usullari, logopedik ritmika, psixoterapevtik yondashuvlar hamda zamonaviy texnologik vositalarning samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari duduqlanishni korreksiyalash jarayonida kompleks yondashuvning muhimligini ko'rsatadi va amaliy logopedik faoliyatni takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** duduqlanish, logopediya, nutq buzilishi, stammering, nafas mashqlari, logopedik ritmika, psixoterapiya, fonatsiya, artikulyatsiya, nutq tempi, korreksion ishlar, psixologik yondashuv, nutq terapiyasi.

**Abstract:** This article analyzes the nature of stammering (stuttering) as a speech disorder, its causes, and modern speech therapy methods and tools used for its correction. Psychological, neurological, and social factors of stammering are discussed, along with a scientific analysis of its impact on the speech activity of children and adolescents. The article also evaluates the effectiveness of breathing exercises, methods for regulating rhythm and speech tempo, speech therapy rhythmic, psychotherapeutic approaches, and modern technological tools. The research findings highlight the importance of a comprehensive approach to the correction of stammering and contribute to improving practical speech therapy activities.

**Key words:** stammering, speech therapy, speech disorder, breathing exercises, speech therapy rhythmic, psychotherapy, phonation, articulation, speech tempo, corrective work, psychological approach, speech therapy.

**Аннотация:** В данной статье анализируется сущность нарушения речи – заикания, причины его возникновения, а также современные логопедические методы и средства, применяемые для его коррекции. Рассматриваются психологические, неврологические и социальные факторы заикания, а также научно обосновывается его влияние на речевую деятельность детей и подростков. Кроме того, в статье анализируется эффективность упражнений по правильному дыханию, методов регулирования ритма и темпа речи, логопедической ритмики, психотерапевтических подходов, а также современных технологических средств. Результаты исследования показывают важность комплексного подхода в процессе коррекции заикания и способствуют совершенствованию практической логопедической деятельности.

**Ключевые слова:** заикание, логопедия, нарушение речи, stammering, дыхательные упражнения, логопедическая ритмика, психотерапия, фонация, артикуляция, темп речи, коррекционная работа, психологический подход, речевая терапия.

## KIRISH

Nutq insonning ijtimoiy hayotda o'z fikrini ifoda etish, atrofdagilar bilan muloqot qilish va o'z shaxsini namoyon etishida eng muhim vosita hisoblanadi. Nutqning ravn, aniq va to'g'ri bo'lishi shaxsning psixologik holati, ijtimoiy faolligi hamda ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois nutq buzilishlari, xususan, duduqlanish muammosi logopediya va psixologiya fanlarida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Duduqlanish (stammering) – bu nutqning ravnligi buzilishi bilan tavsiflanadigan murakkab nutq nuqsoni bo'lib, unda tovush, bo'g'in yoki so'zlarning takrorlanishi, cho'zilishi hamda nutq jarayonida to'xtalishlar kuzatiladi. Ushbu holat nafaqat nutqning tashqi ko'rinishiga, balki bolaning psixologik holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Duduqlanadigan bolalarda ko'pincha o'ziga ishonchsizlik, ijtimoiy tortinchoqlik, qo'rquv va emosional zo'riqlik holatlari rivojlanadi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, duduqlanish ko'pincha bolalik davrida,

ayniqsa, nutqning faol shakllanish bosqichida yuzaga keladi. Uning kelib chiqish sabablari murakkab bo'lib, biologik (markaziy asab tizimi faoliyatidagi o'zgarishlar), psixologik (stress, qo'rquv, emotsional travmalar) va ijtimoiy (oilaviy muhit, noto'g'ri tarbiya, kuchli bosim) omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Duduqlanishni bartaraf etish jarayoni murakkab va uzoq davom etuvchi korreksion ishlarni talab qiladi. Logopedik amaliyotda ushbu muammoni hal etishda turli usullar va vositalar qo'llaniladi. Jumladan, nafasni boshqarish mashqlari, nutq tempi va ritmini tartibga solish, artikulyatsion mashqlar, logopedik ritmika, psixoterapevtik yondashuvlar hamda relaksatsiya texnikalari keng qo'llaniladi. So'nggi yillarda esa zamonaviy texnologiyalar, mobil ilovalar va biofeedback tizimlari ham duduqlanishni korreksiyalashda samarali vosita sifatida qo'llanilmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi – duduqlanishni bartaraf etishda qo'llaniladigan asosiy usullar va vositalarni tahlil qilish, ularning samaradorligini ilmiy asosda yoritish hamda amaliy logopedik faoliyat uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari duduqlanish bilan ishlashda kompleks va individual yondashuvning muhimligini ko'rsatadi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Duduqlanish nutqning ravonligi buzilishi bilan xarakterlanadigan murakkab nutqiy nuqson bo'lib, unda nutq jarayonida tovush, bo'g'in yoki so'zlarning takrorlanishi, cho'zilishi hamda nutqning uzilib qolishi kuzatiladi. Ushbu holat nutq apparatining fiziologik faoliyati bilan bir qatorda markaziy asab tizimi va psixologik jarayonlar bilan ham bevosita bog'liq. Duduqlanish ko'pincha erta bolalik davrida, nutq faol shakllanayotgan paytda yuzaga keladi. Ayrim hollarda u maktab yoshida kuchayishi yoki barqarorlashishi mumkin. Nutq nuqsonining og'ir-yengilligiga qarab, bola muloqot jarayonida qiyinchiliklarga duch keladi, bu esa uning ijtimoiy faolligi va psixologik holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Duduqlanishning etiologiyasi murakkab bo'lib, bir nechta omillar bilan izohlanadi:

- biologik omillar – markaziy asab tizimi faoliyatidagi funksional buzilishlar, irsiy moyillik, miya nutq markazlarining yetarlicha rivojlanmaganligi;
- psixologik omillar – kuchli stress, qo'rquv, emotsional travmalar, oilaviy nizolar, bolaga nisbatan ortiqcha talabchanlik yoki bosim;
- ijtimoiy-pedagogik omillar – noto'g'ri nutqiy muhit, tez va noto'g'ri nutqqa taqlid qilish, ota-onalarning nutq madaniyati pastligi, ikki tillilik sharoitida til aralashuvi.

Shu sababli duduqlanishni bartaraf etishda faqat logopedik emas, balki psixologik va pedagogik yondashuv ham muhim ahamiyatga ega.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Duduqlanishni samarali korreksiyalash uchun, avvalo, uning darajasi va xususiyatlari aniqlanadi. Diagnostika jarayonida quyidagi jihatlar o'rganiladi: nutqning ravonligi va tempi, nutqdagi to'xtalishlar soni hamda davomiyligi, nafas olish va fonatsiya holati, emotsional holat va nutqqa bo'lgan munosabat, ijtimoiy vaziyatlarda nutq faolligi. Logoped va psixolog hamkorligida o'tkaziladigan kompleks baholash asosida individual korreksion reja tuziladi. Duduqlanishni korreksiyalashda qo'llaniladigan usullar tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Eng muhim metodlar quyidagilardan iborat:

- nafasni boshqarish mashqlari – to'g'ri nafas olish nutq ravonligining asosiy sharti hisoblanadi, diafragmal nafas olishni rivojlantirish, sekin va bir tekis nafas chiqarish mashqlari nutqning barqarorligini ta'minlaydi;
- nutq tempi va ritmini tartibga solish – sekinlashtirilgan nutq, bo'g'inlab gapirish, ritmik talaffuz qilish usullari duduqlanishni kamaytirishda samarali hisoblanadi, bu usul nutqni ongli boshqarishga yordam beradi;
- logopedik ritmika – musiqa, harakat va nutqni uyg'unlashtirish orqali nutqning avtomatlashuvi ta'minlanadi, ritmik harakatlar bola nutqidagi keskinlikni kamaytiradi;
- artikulyatsion mashqlar – nutq apparati mushaklarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tovushlarni aniq va ravon talaffuz qilishga yordam beradi;
- fonatsion mashqlar – ovoz chiqarish jarayonini boshqarish, tovushni cho'zib aytish va ovoz balandligini nazorat qilish nutq barqarorligini oshiradi;
- psixoterapevtik yondashuvlar – duduqlanishni bartaraf etishda psixologik holatni yaxshilash juda muhim, psixoterapevtik usullar quyidagilarni o'z ichiga oladi: autogen trening (o'zini tinchlantirish mashqlari), relaksatsiya texnikalari, ijobiy emotsional muhit yaratish, qo'rquv va nutqiy bloklarni yengishga yordam beruvchi suhbat terapiyasi, bu usullar bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va nutq jarayonidagi psixologik to'siqlarni kamaytiradi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda duduqlanishni bartaraf etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kengayib bormoqda. Jumladan: biofeedback qurilmalari (nafas va nutq ritmini nazorat qilish), mobil logopedik ilovalar, audio-vizual trening dasturlari, kompyuter asosidagi nutq mashqlari. Ushbu vositalar bolaga o'z nutqini mustaqil nazorat qilish imkonini beradi va korreksion jarayonni qiziqarli qiladi. Duduqlanishni bartaraf etishda individual va guruhli mashg'ulotlar muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlar muntazam, bosqichma-bosqich va tizimli ravishda olib borilishi kerak. Har bir bolaning nutq darajasi va psixologik holati inobatga olinadi. Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlik juda muhim hisoblanadi. Uy sharoitida bajariladigan mashqlar logopedik ish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Duduqlanish nutqning ravonligi buzilishi bilan bog'liq murakkab nutqiy-psixologik muammo bo'lib, u bolaning nafaqat og'zaki nutqiga, balki uning ijtimoiy moslashuvi, o'ziga ishonchi va emotsional barqarorligiga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot jarayonida duduqlanishning kelib chiqishida biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o'zaro uzviy bog'liqligi aniqlanib, ushbu muammoni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv zarurligi asoslab berildi. O'rganilgan ma'lumotlarga ko'ra, duduqlanishni korreksiyalashda faqat birgina usul emas, balki bir nechta metodlarni uyg'unlashtirgan holda qo'llash eng samarali natija beradi.

Xususan, nafasni to'g'ri boshqarish mashqlari, nutq tempi va ritmini tartibga solish, logopedik ritmika, artikulatsion va fonatsion mashqlar nutq ravonligini yaxshilashda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, psixoterapevtik yondashuvlar, relaksatsiya texnikalari va ijobiy emotsional muhit yaratish bolaning psixologik to'siqlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va biofeedback tizimlaridan foydalanish esa logopedik jarayonni yanada samarali va individual yondashuv asosida tashkil etish imkonini bermoqda. Bu esa bolaning o'z nutqini ongli boshqarish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

## XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, duduqlanishni bartaraf etishda ota-onalar, pedagoglar, logopedlar va psixologlar hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Muntazam, tizimli va individual yondashuv asosida olib borilgan korreksion ishlar natijasida nutq ravonligini sezilarli darajada yaxshilash mumkin.

Umuman olganda, duduqlanishni erta aniqlash va kompleks yondashuv asosida bartaraf etish bolaning to'liq nutqiy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Левина Р. Е. Основы теории и практики логопедии. – Москва, 2008.
2. Волкова Л. С. Логопедия. – Москва: ВЛАДОС, 2013.
3. Филичева Т. Б., Чиркина Г. В. Коррекция нарушений речи. – Москва: Просвещение, 2010.
4. Шкловский В. М. Заикание: теория и практика. – Москва, 2005.
5. Селиверстов В. И. Логопедическая работа с заикающимися детьми. – Москва, 2014.
6. Зеeman М. Нарушения речи и их коррекция. – Москва, 2011.
7. Hasanov A. A. Maxsus pedagogika va logopediya asoslari. – Toshkent, 2020.
8. Karimova M. S. Bolalar nutqini rivojlantirish va korreksion ishlar. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
9. Yusupova D. R. Nutq nuqsonlarini bartaraf etish metodikasi. – Toshkent, 2018.
10. Qodirova F. R. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.